

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
Fizika-matematika fakulteti**

“Informatika va AT” kafedrası

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan

Kurs ishi

Bajardi: Sheripov M

Tekshirdi: Xusainov I.I

Urganch 2012-y

MS DOS operatsion tizimi

Reja:

I.Kirish.....	2
I bob.MS DOS operatsion tizmi qisqacha tarixi	5
1.1 MS DOS opertasion tizimining yaratilishi	5
2 bob.MS DOS operatsion tizimi asosiy buyruqlari	6
2.1 MS DOS opertasion tizimining ichki buyruqlari	6
2.1 MS DOS opertasion tizimining tashqi buyruqlari	13
III bob.MS DOS operatsion tizimida ishlash imkoniyatlari	15
3.1 Kataloglar bilan ishlash	18
3.2 Fayllar ustida amallar	
3.3 Bosmaga chiqarish	
IV. bob MS DOS ning tashkil etuvchilari va ularning asosiy vazifalari.....	26
4.1 MS DOS ning asosiy qismlari.....	
4.2 MS DOS ning yuklash algoritmi	
V.Xulosa.....	
VI.Foydalangan adabiyotlar	

Kirish

Operatsion tizim – kompyuter yoqilganida yuklanadigan dasturdir. U foydalanuvchi bilan muloqotga kirishadi, kompyuterning resurslari (tezkor xotira, disklardagi joylar va hokazolar)ni boshqarishni amalga oshiradi, boshqa dasturlarni bajarish uchun ishga tushiradi. Operatsion tizimi foydalanuvchiga va amaliy dasturlarga kompyuterning uskunalari bilan aloqa qilishning qulay usuli (interfeys)ni ta'minlaydi.

Operatsion tizimining zarurligining asosiy sabablari, kompyuter vositalari bilan ishlash va resurslarini boshqarish uchun eng sodda amallar - bu eng quyi darajadagi amallardir, shuning uchun foydalanuvchiga va amaliy dasturlarga zarur bo'lgan harakatlar bir necha yuzlab yoki minglab shunday amallardan iborat bo'ladi.

Masalan, magnit disklardagi axborot to'plovchi diskovodning dvigatelini qanday qilib yoqish, o'chirishni, ma'lum silindrga o'quvchi boshchani o'rnatish, ma'lum o'quvchi boshchani tanlash, kompyuterdagi diskning yo'lakchasidagi axborotni o'qish va hokazo kabi amallarni "tushunadi". Hatto bir disketdan ikkinchisiga faylning nusxasini ko'chirish, kabi murakkab bo'lmagan amalni bajarish uchun ham (fayl – bu diskdagi yoki boshqa mashinaviy axborot tashuvchidagi axborotlar to'plami) diskovodlarga taalluqli buyruqlarni ishga tushirish, ularning ijrosini tekshirish, disklardagi fayllarni joylashtirish, jadvallaridan axborotni izlash hamda ularga ishlov berish va hokazolar bo'yicha minglab amallarni bajarish lozim bo'ladi. Vazifalar quyidagilar tufayli murakkablashadi:

- disketalarning o'nga yaqin formatlari mavjud va operatsion tizimi ularning hammasi bilan ishlay olishi kerak. Foydalanuvchi uchun turli formatdagi disketalar bilan ishlash mutlaqo bir xil bo'lishi kerak;
- disketalarda fayl ma'lum bir maydonni egallaydi, foydalanuvchi aynan qaysi uchastkalar ekanligi haqida hech narsani bilmasligi kerak. Fayllarni joylashtirish jadvallarga xizmat ko'rsatish, ulardan axborot izlash, disklarda fayllar uchun joy ajratish bo'yicha barcha ishlar operatsion tizimi tomonidan bajariladi va foydalanuvchi bular haqida hech narsa bilmasligi mumkin.

Nusxa ko'chirish dasturi ishlayotgan paytda turli xildagi vaziyatlar, masalan, axborotni o'qish yoki yozish vaqtida uzulishlar, buzilishlar, nusxa ko'chirilayotgan fayl

uchun disketada joy bo'lmay qolishi va hokazolar kabi holatlar ro'y berishi mumkin. Mana shunday barcha vaziyatlar uchun tegishli xabarlar va to'g'rilovchi harakatlarni hisobga olib qo'yish kerak (masalan, 4-ilovaga qarang).

Operatsion tizim foydalanuvchidan bu murakkab va unga kerak bo'lmagan tafsilotlarni yashiradi va unga ishlashi uchun qulay bo'lgan interfeysni taqdim etadi. Tizim, shuningdek, turli yordamchi harakatlar, masalan, fayllarni ko'chirish yoki chop etishni ham bajaradi. Operatsion tizim tezkor xotiraga hamma dasturlarni yuklashni amalga oshiradi, ular ishlay boshlashi bilan boshqarishni ularga topshiradi, bajarilayotgan dasturlarning so'rovi bo'yicha turli harakatlarni bajaradi va tezkor xotirani yakunlangan dasturdan tozalaydi.

Odatda, IBM PC shaxsiy kompyuterni Microsoft firmasining MS DOS operatsion tizimi yoki uning IBM firmasi tarqatadigan PC DOS varianti rahbarligida yo bo'lmasa, Digital Research firmasi (hozirgi Novel firmasining bo'linmasi)ning MS DOS operatsion tizimi bilan qo'shib, o'rin almashib ishlay oladigan DR DOS tizimi yoki IBM firmasining PC DOS operatsion tizimi boshqaruvida ishlaydilar. Bundan buyon bu uchta operatsion tizimi ta'riflanadi va bunda ularning hammasi bitta umumiy DOS so'zi bilan ataladi.

Operatsion sistema kompyuter ishga tushirilishi bilan yuklanuvchi shunday bir dasturki, bu dastur foydalanuvchiga EHM bilan muloqot qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi, uning barcha qurilmalari ishini boshqarish imkonini beradi. Operatsion sistema yordamida tezkor xotiradan foydalanish, diskdagi axborotlarni o'qish yoki axborotlarni disklarga yig'ish, amaliy dasturlarni ishga tushirish va shu kabi turli ishlarni amalga oshirish mumkin. Operatsion sistemaga ehtiyoj borligining asosiy sababi undagi dasturlarsiz bu kabi ishlarni bajarish uchun quyi bosqichdagi yuzlab yoki minglab elementar amallarni bajarishga to'g'ri keladi.

Operatsion sistemaning asosiy vazifasi foydalanuvchini uning bajarishi va umuman bilishi ham kerak bo'lmagan zerikarli va juda murakkab ishlardan xolis etish, kompyuter bilan muloqot qilishda qulayliklar yaratishdir. Bundan tashqari, operatsion sistema fayllarni ko'chirish yoki bosmaga chiqarish, kerakli dasturlarni tezkor xotiraga yuklab

ishga tushirish va boshqaruvni ularga uzatish, operativ xotirani dastur ishi so'ngida bo'shatib boshqaruvni yana o'ziga olish kabi ishlarni ham bajaradi.

Foydalanuvchi va EHMning muloqoti foydalanuvchining MS DOS operatsion sistemasiga ketma-ket beriladigan buyruqlari asosida tashkil etiladi. Buning uchun ichki va tashqi buyruqlar berilgan bo'lib, ichki buyruqlar COMMAND.COM buyruq faylida, tashqi buyruqlar esa alohida fayl ko'rinishida bo'ladi.

1. Microsoft korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan operatsion tizim. MS-DOS ning birinchi rusumi 1981 yilda paydo bo'lgan. Avvalambor, Microsoft kompaniyasi tomonidan IBM uchun ishlab chiqilgan MS-DOS, IBM - uyg'un kompyuterlar uchun standart operatsion tizimdir. MS-DOS 16-xonali operatsion tizimi bo'lib, u ko'pfoydalanuvchili va ko'pmasalali maromlarni qo'llab-quvvatlay olmaydi. Operatsion tizimning muhim xususiyatlaridan biri mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilarga amaliy jarayonlarni bajarishning qulay shakllarini taqdim qilsa, mutaxassislarga dasturiy ta'minotni ishlash uchun yaxshi asos taqdim qiladi. MS-DOS kataloglar shajarasini tashkil qiladi, taraqqiy etgan buyruqlar tiliga ega. MS-DOS amaliy jarayonlar, fayllar va tashqi qurilmalar bilan samarali ishlay oladi.

2. MS-DOS buyruqlari ichki va tashqi buyruqlarga bo'linadi. Command.com faylida mujassamlashgan ichki buyruqlar quyidagilardan iborat:

BREAK [ON|OFF]

Foydalanishi:

ijro etilayotgan dasturni uzish uchun

OFF - BREAK = OFF ni o'rnatish uchun (oldindan boshqa parametrlar o'rnatilmagan bo'lsa) (Ctrl-BREAK bosish) operator orqali uzilishni tekshirish standart kiritish/chiqarish va standart bosma qurilmasiga chiqarish vaqtida tekshiriladi.

BUFFERS

Yozilishi:

BUFFERS=n

Foydalanishi:

ishchi xotiradan buferni diskga kiritish/chiqarish amallarini bajarish uchun zaxiraga olish uchun
n -zaxiraga olinadigan buferlar soni.

CHDIR

Yozilishi:

CHDIR|cd[d:][path]

Foydalanishi:

joriy direktoriyani belgilangan yoki joriy qurilmada almashtiradi yoki joriy qurilma va joriy direktoriya xaqida ma'lumotni monitor ekraniga chiqaradi

CLS

Yozilishi:

CLS

Foydalanishi:

display ekranini tozalash

COPY

Yozilishi: COPY [/A] [/B] [D:][path] [filename.ext]] [/A] [/B]
[D:][path] [filename.ext]] [/A] [/B] [/V]

bu variant nusxa olinayotgan faylning nomi aslidan boshqa nomga ega bo'lsa ishlatiladi.

COPY [/A] [/B] [D:][path]

[filename.ext]] [/A] [/B][+[D:][path]

[filename.ext]] [/A] [/B] ...] [D:][path]

[filename.ext]] [/A] [/B] [/V]

COPY [/A] [/B] [D:][path]

[filename.ext]] [/A] [/B][+[[,]D:][path]

[filename.ext]] [/A] [/B] ...] [D:][path]

[filename[.ext]] [/A] [/B] [/V]

2 va 3 variantlarda ikki yoki undan ko'p fayllarni birinchi fayl bilan birlashtirish uchun ishlatiladi

Foydalanishi: fayllar yoki direktoriyalarning nusxasini olish

Kiruvchi fayl uchun:

/A - kiruvchi fayl ASCII kodi ya'ni matn shaklida qayta ishlanadi. Ushbu fayl qiymatlari birinchi uchragan Ctrl-Z belgisigacha nusxa oladi.

/B - fayldan to'la nusxa oladi (fayl oxiri mundarijada ko'rsatilgan xajm orqali aniqlanadi)

Chiquvchi fayl uchun:

/A - faylning oxirgi belgisi sifatida Ctrl-Z belgisini qo'shib qo'yish.

/V - Ctrl-Z belgisini fayl oxiriga qo'shmasdan

/V - nusxa olinadigan disketga Yozilishini tekshirib olish

+ - fayllarni birlashtiradi

CTTY

Yozilishi: CTTY

Foydalanishi: birlamchi konsuldan yordamchi konsulga standart kiritish va chiqarishni uzgartiradi

AUX, COM1, COM2 larni ishlatish mumkin

CON yordami bilan birinchi konsulga qaytish mumkin

DATE

Yozilishi: DATE [mm-dd-yy]

Foydalanishi: tizim sanasini o'zgartirish uchun. Bu sana xar bir yaratilgan fayl uchun mundarijada yoziladi

DEL (ERASE)

Yozilishi: DEL [D:] [path] filename [.EXT]

Foydalanishi: buyruqda nomi ko'rsatilgan faylni ko'rsatilgan qurilmadan uchiradi

Agarda qurilma va direktoriya ko'rsatilmagan bo'lsa fayl joriy qurilma va direktoriyadan uchiriladi.

* DEL buyrug'i yordamida poddirektoriyani o'chirib bo'lmaydi

DEVICE

Yozilishi: DEVICE=[D:] [path] filename .EXT

Foydalanishi: yangi drayverlar o'rnatish uchun

Drayverlar yordamida MS-DOS disk yurituvchi, klaviatura, ekran, printer, aloqa adapteri va boshqa qurilmalar bilan aloqa o'rnatadi

DIR

Yozilishi: DIR [D:][path] [filename[.ext]] [/P] [/W]

Foydalanishi: disk yoki joriy direktoriyaning mundarijasini chiqarish uchun
Mundarijada xar bir faylning xajmi, diskga yozilgan vaqti xaqida axborot mavjud bo'ladi

/P - ekranga mundarijani betma-bet chiqarish uchun

/W - ekranga mundarijani keng shaklda chiqarish uchun, bu xolatda faylning faqat nomigina ko'rsatilgan bo'ladi

FILES

Yozilishi: FILES = n

Foydalanishi: bir vaqt ichida ochish mumkin bo'lgan fayllar sonini belgilash

MS-DOS bir vakt ichida 20 gacha fayl (optimal son - 8) ochish uchun imkon yaratadi

MKDIR

Yozilishi: MKDIR [D:] [path] yoki MD [D:] [path]

Foydalanishi: belgilangan qurilmada direktoriya yaratish

PATH

Yozilishi: PATH [[D:] [path] [[: [d:] [path]...]]

Foydalanishi: buyruqlarni topish uchun alternativ marshrutlar belgilaydi

Parametrsiz berilgan PATH buyrug'i monitor ekranida joriy direktoriyaga kirish marshrutini ko'rsatadi.

PATH; qidirish buyrug'ini bekor qiladi

PATH buyrug'i faqat .EXE, .COM, .BAT kengaytmali fayllarni qidirish uchun ishlatiladi
PROMPT

Yozilishi: PROMPT [so'rov matni]

Foydalanishi: yangi tizimli so'rovni o'rnatadi. Matn maxsus buyruq satrlaridan iborat bo'lishi mumkin. Quyidagi buyruq satrlaridan foydalanish mumkin

- \$ - belgi \$
- t - vaqt
- d - sana
- p - aktiv qurilmadagi joriy direktoriya
- v - versiya rakami
- n - aktiv qurilma
- g - ">" belgisi
- l - "<" belgisi
- b - "|" belgisi
- Q - "=" belgisi
- H - oxirgi belgini o'chirish belgisi
- E - ESC belgisi
- - CR va LF ketmaketlik (karetkani qaytarish va yangi satrga o'tish)

Parametrlarsiz berilgan PROMPT buyrug'i oldin berilgan parametrlarni bekor qiladi

RENAME (REN)

Yozilishi: RENAME | REN [d:] [path] filename [.ext] filename [.ext]

Foydalanishi: birinchi parametrdagi berilgan fayl nomini ikkinchi parametrdagi ko'rsatilgan nomga o'zgartirish

RMDIR

Yozilishi: RMDIR [D:] path yoki RD [D:] path

Foydalanishi: direktoriyani uchirish, uchiriladigan direktoriya bo'sh bo'lishi kerak
Ildiz va joriy direktoriyani o'chirib bo'lmaydi

SET

Yozilishi: SET [name= [parametr]]

Foydalanishi: belgilangan buyruq satrini protsessor buyruqlar ichiga quyish

SHARE

Yozilishi: [D:] [path] SHARE [/F:filesystem] [/L:locks]

Foydalanishi: fayllarni tashkil qilishni qo'llash va ochiq fayllar bilan foydalanishni tashkil qilish

X'30' (faylni ochish) tizimli chaqiruv bilan fayllar bilan foydalaniladi.
/F:filesystem - fayllarni tashkil qilishni qo'llashda baytlarda oraliqni belgilash
(ko'rsatilmasa =2048 bayt)
/L:block - kanallar sonini belgilash (ko'rsatilmasa =20)

SHELL

Yozilishi: SHELL=[d:] [path] filename.ext

Foydalanishi: qo'shimcha buyruqlar protsessorini qo'llash

TIME

Yozilishi: TIME [hh:mm[:ss[.xx]]]

Foydalanishi: vaqtni kiritish

hh	-	soat
mm	-	minut
ss	-	sekunda

xx - sekundaning yuzdan bir qismi

TYPE

Yozilishi: TYPE [D:] [path] filename [.EXT]

Foydalanishi: fayl matnini monitorga chiqarish

Ctrl-PrtSc bosilganda ekrandagi fayl matni chop etish qurilmasiga chiqadi

VERSION (VER)

Yozilishi: VER

Foydalanishi: joriy operatsion tizimining versiyasi xaqidagi axborotni monitor ekranida chiqarish

VERIFY

Yozilishi: VERIFY [ON | OFF]

Foydalanishi: barcha disk bilan bo'ladigan yozish opertsiyalarini tekshiruv rejimida bajarishni tashkil qilish (qayta o'qish va solishtirish)

VOLUME (VOL)

Yozilishi: VOL [D:]

Foydalanishi: belgilangan qurilmada disk nomini chiqarish

CD - joriy katalogni o'zgartirish;

CLS - ekranni tozalash;

COPY - fayl yoki kataloglardan nusxa olish;

DATE - joriy sanani kiritish;

DELETE - faylni o'chirish;

DIR - joriy katalogdagi fayllar ro'yxatini ekranga chiqarish;

COMMAND.COM - buyruq protsessori;

FOR - takrorlash buyrug'i;

GOTO - buyruq faylidagi metkaga o'tish;

IF - buyruq faylidagi shartni tekshirish;

MD - yangi katalog tuzish;

PATH – Zaruriy qullaniladigan fayllar yolini o'rnatish;

PAUSE - buyruq faylini ishini to'xtatish;

PROMPT - DOS taklifi belgisini o'zgartirish

REM - buyruq faylidagi izox;

REN - fayl nomini o'zgartirish;

RD - katalogni o'chirish;

SET - o'zgaruvchini belgilash;

SHIFT - buyruq fayli parametrlari nomerlarini surish;

TIME - vaqtni kiritish;

TYPE - fayl tarkibini ekranda ko'rish;

VER - DOS versiyasini aniqlash;

VOL - formatlash jarayonida diskka quyilgan belgini ko'rsatish

MS-DOS tashqi buyruqlari operatsion sistema bilan birgalikda tavsiya etiladigan, aloxida-aloxida fayl ko'inishidagi dasturlar bo'lib, bu buyruqlar quyidagilardir:

APPEND - berilganlarni izlash uchun qushimcha kataloglarni belgilash;

ASSIGN - disk yurituvchi mantiqiy nomini (harfni) o'zgartirish;

ATTRIB - fayl atributini ko'rsatish yoki o'zgartirish;

BACKUP - fayllarning arxiv nusxalarini yaratish;

CHKDSK - diskni tekshirish va ma'lumot olish;

COMMAND - MS DOS buyruq protsessorini ishga tushirish;

DEBUG – Yuklovchi fayllarni islash jarayonini dizassemblerlanishini ko'rib chiqish;

DISKCOMP – Yumshoq disklarni solishtirish;

DISKCOPY - Yumshoq diskdan nusxa olish;

EDLIN - sodda matn muharriri;

EXE2BIN - EXE faylini ikkilik kodga o'tkazish;

FASTOPEN - fayllarni ochish tezligini oshirish;

FC - fayllarni solishtirish;

FDISK - qattiq diskni konfiguratsiyasini o'rnatish;

FIND - fayldagi biror jumlani izlash;

FORMAT - diskni formatlash;

GRAPHICS - ekrandagi tasvir nusxasini bosmaga tayyorlash;

HELP - DOS buyruqlari haqida ma'lumotlar beruvchi yordamchi fayl;

JOIN - disk yurituvchini berilgan katalogga mantiqan bog'lash;

LABEL - disk belgisini ko'rish yoki belgi qo'yish;

MIRROR - fayllarni o'chirishni nazorat qilib borish buyrug'i;

MODE - qurilmalar ishi holatlarini o'rnatish;

MORE - monitor ekraniga sahifalarga bo'lib chiqarish;

PRINT - matn faylini fon bilan bosmaga chiqarish;

ECOVER - qismlari buzilgan faylni tiklash;

REPLASE - fayllarni yangi versiyalari bilan almashtirish;

SORT - berilganlarni saralash;

SUBST - katalog nomini disk yurituvchi belgisiga almashtirish;

SYS - sistema fayllarini diskka ko'chirish;

TREE - diskdan kataloglar shaxobchasini chiqarish;

UNDELETE - o'chirilgan fayllarni tiklash buyrug'i;

UNFORMAT - formatlangan diskni qayta tiklash buyrug'i;

XCOPY - fayldan nusxa olish (COPY ga nisbatan imkoniyati ko'proq).

3. MS-DOS operatsion sistemasi muxitida ishlashda quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

1. Kompyuterni yuklash.
2. MS-DOS OSni yuklash
3. MS-DOS OS taklifnomasi. Buyruq kiritish
4. Kirilcha shriftdan lotincha shriftga o'tish va aksincha, lotincha shriftdan kirilcha shriftga o'tish
5. Fayl yaratish
6. Faylni o'chirish
7. Faylni qayta nomlash
8. Faylni nusxalash. Bir necha faylni birlashtirish
9. Diskdan faylni qidirish
10. Bexosdan o'chirilgan faylni tiklash
11. Katalog yaratish
12. Joriy diskni almashtirish
13. Katalog mundarijasini ko'rish
14. Katalogga kirish
15. Katalogdan chiqish
16. Katalogni o'chirish
17. Fayl mazmunini ekranga chiqarish
18. Ekrandan ma'lumotlarni tozalash
19. Faylni chop qilish

Komputer joriy sanasini o'zgartirish

Kompyuterdan joriy yilning kun, oyi xaqida ma'lumot olish uchun buyruq qatorida

date "Enter"

buyrug'i beriladi, natijada kompyuter ekranida joriy yil, kun, oy xaqida ma'lumot paydo bo'ladi va so'ngra kompyuter yangi ma'lumotni kiritish xaqida so'raydi. Agar uni o'zgartirish kerak bo'lmasa "Enter" bosiladi, aks xolda yangi ma'lumot (mm-oy, dd-kun,

uu-yil) kiritiladi, ular "—" simvol bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

Komputer joriy vaqtini o'zgartirish

Kompyuterdan joriy kunning vaqti xaqida ma'lumot olish uchun buyruq qatorida

time "Enter"

buyrug'i beriladi. Yangi vaqt o'rnatilishi yuqoridagicha bo'ladi, lekin joriy kunning "soat", "minut", "daqiqa" lari " : " simvoli bilan ajratilishi lozim.

Taklif belgilarni o'zgartirish

PROMPT taklif belgilari orqali xar xil katalogga oid o'zgartirishlar qilish mumkin, buyruqdan keyin yoziladigan taklif belgilarining manolari quyidagicha:

\$p	-	joriy	saqlagich	va	katalogni	ko'rsatib	turish:
\$n	-	joriy	saqlagichni			ko'rsatib	turish:
\$d	-	joriy	sanani			ko'rsatib	turish:
\$t	-	joriy	vaqtni			ko'rsatib	turish:
\$h	-	chapdagi	bir			belgini	o'chirish:
\$c	-	kodi	27	bo'lgan		belgi	(ESC):
\$g	-	">" belgisi.					

Misolar:

```
K: A:\>
F: A:\> prompt $p$t enter
K: A:\ 18:51:47.02
F: prompt $n$d enter
K: A Sat 02-28-1998
F: prompt $g enter
K:>
```

Disklarni format qilish

Disketlarni birinchi marotaba ishlatishdan oldin u bilan DOS sistemasi uchun muloqatga

imkoniyat yaratilishi lozim. Buning uchun DOS ning FORMAT buyrug'i yordamida disketni formatlash (initsializatsiya qilish) kerak, ya'ni buyruqlar quyidagicha beriladi.


C:\FORMAT A:

Mabodo disketaga qandaydir ma'lumotlar yozilgan bo'lsa, u FORMAT buyrug'i burilishi Kataloglar ustida amallar

Katalog tushunchasi

Katalog (direktoriya) diskdagi fayllar xaqidagi axborotlar (fayl nomi, kengaytmasi, uzunligi, so'nggi taxrir vaqti, xolati va x.k.) yoziladigan maxsus joydir. Diskda bir necha katalog mavjud bo'lishi va xatto biror katalogning ichida boshqa bir katalog yoki kataloglar joylashishi mumkin.

A:\ (o'zak katalog);



A: nomli saqlagichdagi katalog va fayllar.

Kataloglarni nomlashda xam lotin xarflari, raqamlar va fayl nomi uchun qayd etilgan belgilardan foydalanish mumkin. O'zak katalogning nomi xamisha teskari yotik chizik (\ -baklash) belgisi bilan ifodalanadi.

Bir katalogning ikki qism kataloglari bir xil nomlanishi mumkin emas. Odatda

kataloglarni nomlashda kengaytmalardan foydalanilmaydi.

Foydalanuvchi ish olib borayotgan katalog ishchi yoki joriy katalog deb nomlanadi. Maxsus buyruq bo'lmasa, MS-DOS joriy katalog fayllari bilangina ish olib boradi. Buyruqlar satridan katalog nomini kiritish bilan joriy katalogni o'zgartirish mumkin.

Kataloglar bilan ishlash

Odatda foydalanuvchi tomondan ishlayotgan diskni ishchi yoki joriy disk deb yuritiladi. Disklardagi o'zga kataloglar bilan ishlash uchun quyidagi ikki amaldan birini tanlash kerak:

- o'zga katalog bilan ishlash uchun uning to'lik nomini ko'rsatish:
- CD buyrug'i yordamida kerakli katalogga o'tish va ana shu katalogni joriy qilish.

Katalogni dialog tizimi yordamida klaviaturadan quyidagicha xosil qilish mumkin:

K: A:\>

(DOSni yuklangan xolatida turipti.)

f: md abror

(bu yerda md buyrug'i yordamida abror nomli katalog xosil qildik.)

f: cd abror

f: copy con muhammad

(klaviaturadan to'g'ridan-to'g'ri muhammad nomli fayli xosil qilinadi)

k: A:\ABROR>

(abror katalogi xosil bo'lganligi va uni ichiga kirib ishlash mumkinligi ko'rinadi)

F: "Kompyuterni seving va urganing"

{ctrl+z } (tugmachalari bosiladi)

K: Tekstdan keyin ^-belgi bilan fayl yopilganligi ko'rsatiladi.

Kataloglar bilan ishlash jarayonida disk yoki katalog joriy ekanligini ko'rsatish PROMPT buyrug'i orqali bajariladi.

Kataloglarda fayllar ro'yxati

Kataloglar tarkibidagi fayllar ro'yxati DIR buyrug'i yordamida ekranda ko'riladi. Ko'rib chiqishlarni ustun, saxifama-saxifa xolatda bajarish mumkin. Misol:

dir /w

(ekranga fayllar ro'yxati ustun ko'rinishida chiqadi).

dir /p

(ekranga fayllar ro'yxati saxifama-saxifa chiqadi).

Ekranga chiqarilayotgan ro'yxat turli yo'llar bilan saralanishi mumkin. Buning uchun buyruq so'ngida /o kalitini va quyidagi xarflardan birini yozish kerak:

(n) - nomlariga ko'ra saralash;

(e) - kengaytmalariga ko'ra saralash;

(d) - yaratilish sanalarga ko'ra saralash;

(s) - o'lchamlariga ko'ra saralash; Agarda ikkinchi xarfdan avval (-)chiziqcha belgisi yozilsa, saralash o'sish tarzida emas, kamayish tartibida olib boriladi. Masalan:

dir a:\abror /on

dir a:\abror /o-n

Diskdagi kataloglar shoxobchasini ko'rish tree buyrug'i yordamida bajariladi. Misol:

Tree a

Kataloglarni o'chirish

Katalogni o'chirish uchun rd buyrug'idan foydalaniladi. Misol:

del a:\ABROR\BRR1

buyruq bajarilgandan so'ng katalogdagi BRR1 fayli uchadi. Misol:

rd ABROR

(katalog ABROR va uning tarkibidagi qism kataloglar xam o'chadi)

Kataloglardan nusxa olish

Kataloglardan nusxa olish xcopy buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Misol:

xcopy a:\ABROR\BRR1 c:\

Katalogdagi barcha fayllardan nusxa olish uchun quyidagi kalitlardan foydalanish kerak:

/s - bo'sh bo'lmagan barcha qism kataloglardagi fayllardan nusxa olish;

/s /e - bo'sh kataloglardan xam nusxa olish.

Katalogni qayta nomlash

Katalogni qayta nomlash uchun rename buyrug'idan foydalaniladi. Misol:

rename a:\ABROR MUHAMMAD

bu buyruqdan so'ng ABROR katalog nomi MUHAMMAD nomga almashadi.

FAYLLAR USTIDA AMALLAR

Fayllardan nusxa olish

Fayllardan nusxa olish quyidagi amallardan foydalanish imkonini beradi:

- - biror disk yoki katalogdagi faylning nusxasini biror disk yoki katalogda xosil qilish;
- - niqob belgilaridan foydalanib, fayllar to'plamidan nusxa olish;
- - fayl nomini o'zgartirib nusxa olish;
- - ikki yoki bir necha fayllarni yagona faylga birlashtirish.

Qayd etish lozimki, nusxa olish bilan katalogda avvaldan mavjud bo'lgan fayl kabi nomlangan faylning xosil qilinishi natijasida mazkur katalogdagi avvalgi fayl buziladi.

A: diskdagi abror faylidan V: diska nusxa olish buyrug'i namunasini ko'rsatamiz:
copy a:abror b:

Mazkur copy buyrug'i bir-biridan bo'sh joy bilan ajralib turgan ikki parametrga ega bo'lib, ularning birinchisi nusxa olinayotgan fayl tutgan o'zni va nomini bildirsa, ikkinchisi esa, xosil qilinayotgan fayl o'zni xamda nomini bildiradi. Agarda keltirilgan namunadagi kabi xosil qilinayotgan fayl nomi ko'rsatilmasa, bu uning nomi nusxa olinayotgan fayl nomi kabi bo'lishi kerak ekanligini bildiradi.

Namunadagi buyruq quyidagi ko'rinishda xam kiritilishi mumkin edi:

copy a:abror b:abror

Buyruq bajarilgach, MS-DOS nechta fayldan nusxa olinganligi xakida xabar beradi:

1 File(s) copied (1 fayldan nusxa olindi)

Agarda nusxa olinayotgan fayl nomi noto'g'ri ko'rsatilsa, quyidagi xabar chiqariladi:

File Not Found (Fayl topilmadi)

Fayllar to'plamidan nusxa olish uchun niqob belgilaridan foydalanish kerak bo'ladi. Masalan, joriy disk yoki katalogdagi kengaytmasi .txt bo'lgan barcha fayllardan a: diskga nusxa olish uchun buyruq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

copy *.txt a:

Faraz qilaylik a: joriy diskda .txt kengaytmali fayllar quyidagicha bo'lsin:

lada.txt

sony.txt

toto.txt

Bu vaziyatda MS-DOS nusxa olingan fayllar nomi va soni xaqida axborot beradi:

A: lada.txt

A: sony.txt

A: toto.txt

3 File(s) copied (3 fayldan nusxa olindi)

Nusxa olinayotgan fayllar uchun diskda yetarlicha joy bo'lmasa, MS-DOS kuchirilayotgan fayllar uchun joy yetarli emasligi va nechta fayldan nusxa olingani xaqida xabar beradi.

Nusxa olish chog'ida xosil qilinayotgan fayl nomini o'zgartirish xam mumkin. Misol, a: diskdagi lada.txt faylidan b: diskka niva.txt nomi bilan nusxa olmoqchi bo'lsak, nusxa olish buyrug'i quyidagicha Yozilishi kerak:

copy a:lada.txt b:niva.txt

Bir necha faylning nomini o'zgartirib nusxa olish uchun niqob belgilaridan foydalanish mumkin:

Masalan, barcha .txt kengaytmali fayllardan a: diskdan b: diskka .bak kengaytma bilan olish uchun

copy a:*.txt b:*.bak

buyrug'idan foydalanamiz.

Nomlarini o'zgartirib nusxa olish bilan xosil qilinayotgan fayllarni nusxa olinayotgan katalogning o'ziga xam joylashtirish mumkin. Ammo aynan bir katalogga fayllar nomlari o'zgartirilmay nusxa olish buyrug'i berilsa, ekranga quyidagi xabar chiqariladi:

```
File cannot be copied onto itself  
0 File(s) copied (0 fayldan nusxa olindi)
```

Fayl matnini ko'rish

Matn faylini monitor ekranida ko'rib chiqish mumkin. Buning uchun type buyrug'idan foydalaniladi:

```
type a:brr1.txt
```

Ko'pincha matn fayli o'lchami katta bo'lgani uchun ekranga sig'maydi. Bu xolda more buyrug'i yordamga o'tadi, yani:

```
type a:brr1.txt | more
```

Caxifama-saxifa matnni ko'rishlik more buyrug'i yordamida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy qatorda uni to'xtatishlik CTRL+S yoki PAUSE tugmachalari orqali amalga oshiriladi.

Faylni qayta nomlash

Fayl nomlarigina o'zgartirish rename buyrug'i orqali amalga oshiriladi.

```
ren a:brr1.txt alm.txt
```

Niqob belgisi yordamida fayl nomlarida o'zgarish xosil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

```
ren *.txt *.bak
```

Fayllarni chop etish

Fayllarni bosmaga chikarish print buyrug'i yordamida amalga oshiriladi:

```
print a:brr.txt
```

Agarda bir necha fayllar ketma-ket bosmaga chiqarish talab etilsa, u xolda:

```
print a:brr1.txt brr2.txt brr3.txt
```

tarzida buyruq beriladi.

Fayllarni uchirish

Tasodifan uchirilgan fayllarni o'sha zamon undelete buyrug'i bilan tiklash mumkin, biroq o'chirish amalidan keyin boshqa amallarni bajarilishi tiklashga imkon bermaydi. Bu xolda mirror buyrug'i yordamga o'tadi.

mirror /ta /tb,

yani, /t kalitidan foydalanilgan xolda a: va b: disklar nazoratda bo'ladi.

Fayllarni o'chirish delete buyrug'i yordamida amalga oshiriladi:

Delete a:muh.txt

Buyrukda /r kalitidan foydalanilsa, o'chirishni ta'kidlash xaqidagi axborot chiqadi:

del a:muh.txt /p

muh.txt, Delete (Y,N)?

Faylni o'chirish uchun Y, aksincha N ko'rsatiladi.

Faylni o'chirishda niqoblar yordamida amalga oshirilsa, buyruq quyidagicha yoziladi:

del a:*.txt

Agarda a: diskdagi server katalogidagi barcha fayllarni o'chirish lozim bo'lsa,

del a:\server*.*

ko'rinishda buyruq yoziladi.

Fayllarni chop etish

Fayllarni chop etish uchun PRINT buyrug'i ishlatiladi. Masalan:

C:\>PRINT 1.TXT

buyrug'i 1.TXT faylini chop qilish qurilmasiga chiqaradi.

bilan o'chiriladi. Berilgandan keyin ekranga quyidagicha so'rov paydo bo'ladi.

Insert new diskette to drive a: and strike enter when ready

(disketni qo'ying va "ENTER" tugmasini bosing)

Agar disket yaroqsiz bo'lsa, u xolda

Track 0 bad - disk unusable

(0 yo'l yaroqsiz, disketadan foydalanish mumkin emas)

ma'nodagi xabar paydo bo'ladi.

Disketa formatlangandan keyin yana quyidagi so'rov paydo bo'ladi:

FORMAT another (Y/N)?

{yana formatlash kerakmi (Y- xa N – yo'q)?}

Foydalanuvchi esa o'z navbatida kerakli ma'lumotni berishi lozim.

4. Axborotlar diskda fayllar ko'rinishida saqlanadi. Fayl turli belgilar, sonlar va xarflarning mantiqiy ketma-ketligidir. Ana shunday ketma-ketlik oddiy matnni ifoda etsa, bunday fayl matn fayli deyiladi.

Fayl nomi uzunligi 8 dan, kengaytma uzunligi esa 3 simvoldan oshmasligi kerak. Ajralib turishlari uchun fayl nomi bilan kengaytmasi orasiga nuqta qo'yiladi:

command.com

config.sys

autoexec.bat

matemat8.txt

muhammad.hat

Faylga kengaytma qo'yish majburiy emas. Ammo ko'pgina dasturlar shu dasturda belgilangan kengaytmali fayllar yaratadi va fayllarni kengaytmasiga ko'ra aniqlaydi.

.txt	☐	matn fayli
.doc	☐	dasturga oid ko'rsatmalar
.bas	☐	Basic tilidagi dastur
.pas	☐	Pascal tilidagi dastur
.c	☐	C tilidagi dastur
.exe	☐	bajariladigan fayl
.com	☐	bajariladigan fayl
.bat	☐	buyruq fayli

.sys ☐ sistema fayli

Aksariyat matn muxarrirlari .bak kengaytmasidan fayl nusxalari uchun foydalanadilar. Fayl kengaytmasi qanday bo'lishdan qat'iy nazar taxrir va o'zgartirishlardan so'ng yozilgan fayl bilan birgalikda faylning avvalgi ko'rinishi .bak kengaytmasi bilan saqlanadi. YAni taxrir va o'zgartirishlar noo'rin bajarilgan bo'lsa, faylning avvalgi xolatiga qaytish imkoniyati mavjud.

MS-DOS OS qismlari

MS-DOS operatsion sistema quyidagi qismlardan iborat:

1. Kiritish – chiqarish sistemasi (BIOS):

EHM ning doimiy xotirasiga "joylashtirilgan" bo'lib, operatsion sistemaning axborotni kiritish va chiqarish amallari bilan bog'lik xizmatlarni bajaradi.

2. Operatsion sistemasini yuklovchi dastur (IPL):

Diskning maxsus birinchi sektoriga joylashgan bo'lib, asosiy vazifa DOSning EXM tezkor xotirasiga yuklash.

3. IO.SYS va MSDOS.SYS.

Dasturlari diskda joylashgan bo'lib, murakkab kiritish – chiqarish amallarini bajaradi. Disk fayllari ro'yxatini oddiy ko'rinishda ularning ikkisi xam ko'rinmaydi. (Mazkur fayllarning nomlari OS versiyasiga ko'ra o'zgacha bo'lishi xam mumkin, masalan IBMBIO.COM va IBMDOS.COM)

4. Buyruq protsessori COMMAND.COM.

Diskda joylashgan bo'lib, DOS ishini boshqarish uchun xizmat qiladi. Foydalanuvchining bir qayta buyruqlarini (break, cd, cls copy ...) buyruq protsessorini o'zi bajaradi. Bunday buyruqlar COMMAND.COM ning o'zida joylashganligini uchun ichki buyruqlar deb ataladi.

5. MS-DOS tashqi buyruqlari.

Operatsion sistema bilan birgalikda tavsiya etiladigan aloxida-aloxida fayl ko'rinishidagi dasturlardir. Mazkur dasturlarning xar biri foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan DOS ning qo'shimcha amallarini bajaradi.

Foydalanuvchining tashqi buyrug'i mos bo'lgan dasturni COMMAND.COM izlab topib tezkor xotiraga yuklaydi va boshqaruvni unga uzatadi. Dastur ishi tugagach buyruq protsessori dasturni tezkor xotiradan o'chiradi va foydalanuvchining navbatdagi buyrug'ini kutib turadi.

(A:/ > yoki S:/ >).

6. Qurilma drayverlari.

Diskda joylashgan bo'lib, EHM va tashqi qurilmalar o'rtasida muloqot vositasini o'taydi. Masalan, drayverlar yordamida "elektron disk" bilan ishlash mumkin. SHEHM xotirasining biror qismi xisobiga xosil qilingan bunday diskdan oddiy disk kabi foydalanish mumkin.

MS-DOS ni yuklash algoritmi

- 1) EHM elektr tarmog'iga ulanishi bilan BIOS kompyuter xotirasi va qurilmalarining ishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini maxsus test yordamida tekshirib chiqadi. Qurilmalarda biror buzqlik mavjud bo'lib, ana shu buzqlikni chetlab o'tish mumkin bo'lsagina, DOSni yuklash davom ettiriladi yoki shu buzqlikka oid xabar ekranga chiqariladi.
- 2) Mazkur test muvaffaqiyatli yakunlashish bilan BIOS "A:" nomli disk yurituvda egiluvchan magnitli disk bor yoki yo'qligini tekshiradi. Agar disk mavjud bo'lsa, DOS egiluvchan magnitli diskdan, aksincha esa, qattiq magnitli disk ("vinchester")dan yuklanadi.
- 3) BIOS boshqaruvni DOS ni yuklovchi IPL ga uzatadi va IPL o'z navbatida EHM ni sozlab tezkor xotiraga IO.SYS va MSDOS.SYS disk foyllarni yuklaydi.

4) Boshkaruv COMMAND.COM buyruk protsessoriga beriladi.

DOS yuklanib bo'lgach, DOS olingan EXD yoki KMD da fayllarning foydalanuvchining o'zi avvaldan matn muxarrirlari yordamida tayyorlanish mavjud bo'lsa, avval COMMAND.COM avval CONFIG.SYS ni so'ngra AUTOEXEC.BAT ni ishga tushiradi. YA'ni bu 2 fayl yordamida foydalanuvchi ba'zi drayver va dasturlarni avtomatik ishga tushirish imkoniyatiga ega.

MS-DOS bilan muloqot

EXM ishga tayyor bo'lgach, MS-DOS OT ekranga quyidagi axborot chiqaradi:

A > yoki S: />

Bu bilan MS DOS foydalanuvchining buyrug'ini ishga tayyor ekanligini bildiradi.

DOS ni yuklash jarayonida chetlab o'tish mumkin bo'lgan xatolik xaqidagi axborot va F1 tugmasini bosish kerak ekanligini ifodalovchi yozuv chiqariladi. Xatoni chetlab o'tish mumkin bo'lsa, DOS ni yuklashni takrorlash, aks xolda boshqa diskdan foydalanish kerak. Foydalanuvchi va EXM ning muloqoti foydalanuvchining MS-DOS ga ketma-ket beriladigan buyruqlari asosida tashkil etiladi. Buyruq nomini klaviatura yordamida ekranga yozib, [Enter] tugmasini bosish bilan buyruqni kiritish ishi tugallanadi.

Masalan,

ver

MS-DOS versiyasini ko'rsatuvchi mazkur buyruq kiritilgach, ekranda kerakli axborotni o'qitish mumkin bo'ladi.

MS-DOS version 5D

III.Xulosa

Biz bu kurs ishi orqali MS DOS operatsion tizimi haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot oldik. Operatsion tizimlar 2 xil interfeysda bo'ladi, ya'ni bular grafik va matnlidir. MS DOS operatsion tizimi matnli interfeys hisoblanadi chunki biz amallarni kodlar orqali amalgam oshiramiz, grafik interfeysli operatsion tizimga misol qilib windows ni olishimiz mumkin unda ishlash biroz oson. MS DOS oddiy foydalanuvchilar uchun biroz murakkabroq hisoblanadi. MS DOS operatsion tizimida ham ko'pgina ishlar qilish mumkin, masalan fayllar ustida amallar, faylni bosmaga chiqarish, kataloglar bilan ishlash, diskni formatlash, arxivlash kabilarni amalgam oshirish mumkin. Lekin hozirgi kunda MS DOS dan deyarli foydalanilmaydi. Chunki boya aytganimizdek unda ishlash qiyinroq lekin hozirda uning o'rnini bosadigan operatsion tizimlar juda ham ko'plab topiladi. Lekin ba'zi operatsion tizimlarning asos qismida MS DOS operatsion tizimi yotadi.

VI.Foyalanilgan adabiyotlar

Internet saytlari:

1. www.google.uz
2. www.infoman.uz
3. www.tuit.uz
4. www.ziyonet.uz